



**YANGI O‘ZBEKISTONNING SAN‘AT MENEJMENTI SOHASIDAGI
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

Samiyev Baxtiyor Norbobo o‘g‘li

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti 3-bosqich talabasi

Norbodalova Kumush Ilhom qizi

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Yangi O‘zbekiston sharoitida san‘at menejmenti sohasida kuzatilayotgan zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Undan tashqari maqolada Yangi O‘zbekistonning siyosiy-iqtisodiy islohotlari san‘at menejmentining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ushbu yo‘nalishda innovatsion yondashuvlar, xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik asosida ishlovchi madaniy muassasalarning ko‘payishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi haqida ma‘lumotlar keltirilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: San‘at menejmenti, milliy madaniyat, zamonaviy tendensiya, madaniy merosni, ijodiy muhit, xususiy sektor, integratsiya, innovatsiya

Abstract: This article is devoted to the analysis of modern trends in the field of arts management in the conditions of New Uzbekistan. In addition, the article presents and analyzes information about the positive impact of political and economic reforms of New Uzbekistan on the development of arts management, innovative approaches in this area, the increase in cultural institutions operating on the basis of private sector and public-private partnerships, and the widespread introduction of digital technologies.

Keywords: Arts management, national culture, modern trends, cultural heritage, creative environment, private sector, integration, innovation

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, mamlakatimizda ijtimoiy-madaniy hayotning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratmoqda. Shu jihatdan olganda, san‘at menejmentining zamonaviy tendensiyalarini o‘rganish, bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biridir.





San'at menejmenti Yangi O'zbekistonning madaniy siyosati bilan bevosita bog'liq holda shakllanmoqda Bugungi kunda san'at sohasi ham boshqa sektorlar kabi raqobat maydoniga aylangan bo'lib, unda samarali boshqaruv tizimlarisiz oldinga siljish mumkin emas Aynan mana shu ehtiyoj san'at menejmentining rivojlanishini tezlashtirmoqda

Bu borada O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvarda qabul qilingan "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-406-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustda "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3920-son qarori, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining** 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori, 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarori madaniyat va san'at sohasi,¹ shu jumladan zamonaviy rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonda san'at menejmenti rivojlanishi va mustahkamlanishining huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda

Zamonaviy rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonda san'at menejmenti nafaqat madaniyat muassasalarini boshqarish bilan cheklanib qolmayapti, balki ijodiy startaplari, xususiy kinokompaniyalar, san'at galereyalari va teatr kompaniyalari, festivallari, madaniyat va san'at sohasi ta'limi muassasalari, raqamli san'at platformalari, kontent yaratuvchi agentliklar va boshqa ko'plab sohalarni ham qamrab olayotgan keng ko'lamli tarmoq shaklini olmoqda² Bu esa ushbu yo'nalishda yangicha yondashuvlar, ilg'or menejment texnologiyalari va innovatsion qarorlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda

Yangi O'zbekiston sharoitida san'at menejmentining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda: davlat siyosatining san'at va madaniyat sohasiga bo'lgan e'tibori kuchaygani; madaniy infratuzilmaning modernizatsiya qilinayotgani; xususiy sektorning madaniy loyihalarda faollashayotgani; yoshlar orasida san'at va dizayn sohaslariga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani; xalqaro hamkorlikning kengayib

¹ Yusupova, R. K. "Madaniyat va san'at sohasida innovatsion jarayonlarning tutgan o'rni." *Inter education & global study* 5 (2024): 315-322.

² Fayziyev T. R. "Madaniy sohada menejmentning xususiyatlari". *Перекрёсток культуры*. 2023/4/18. 5.





borayotgani; zamonaviy raqamli vositalar va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanayotganligi³

Yangi O‘zbekiston sharoitida san‘at menejmentining rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi omillar:

✓ **davlat siyosatining madaniyat va san‘atga bo‘lgan strategik e‘tibori,** 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan Prezident farmonlari, qarorlar va dasturlarda sohani qo‘llab-quvvatlash, madaniy merosni saqlash, ijodiy muhitni rivojlantirish hamda san‘at sohasi mutaxassislarini tayyorlash masalalari markaziy o‘ringa ega bo‘lmoqda Bu esa san‘at menejmentining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda

✓ **madaniy infratuzilmaning modernizatsiyasi va kengayishi,** so‘nggi yillarda respublikaning barcha hududlarida yangi teatrlar, konsert zallari, san‘at maktablari, muzeylar, galereyalar va boshqa madaniyat muassasalari barpo etilmoqda yoki rekonstruksiya qilinmoqda Bu infratuzilma faqat ijod uchun emas, balki samarali menejment faoliyatini yuritish uchun ham asos bo‘lib xizmat qilmoqda

✓ **xususiy sektorning san‘at va madaniyatdagi faollashuvi,** O‘zbekistonda san‘at sohasida faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlar, xususiy teatrlar, ijodiy studiyalar, festivallar va galereyalar soni ortib bormoqda Bu holat san‘at menejmentiga bo‘lgan talabni kuchaytiradi, chunki har bir loyiha professional yondashuv va boshqaruvni talab qiladi

✓ **yosh avlod orasida san‘at va ijodkorlikka bo‘lgan qiziqishning ortishi,** Yangi O‘zbekiston yoshlarida san‘at, dizayn, raqamli ijod, musiqa, kino va teatrga bo‘lgan qiziqish keskin ortmoqda Bu esa yangi iste‘dodlar bilan bir qatorda ularni boshqarish, yo‘naltirish va ularga imkon yaratish vazifasini bajaruvchi art-menejerlarga ehtiyojni yanada oshiradi

✓ **xalqaro hamkorlik va madaniy diplomatiyaning kengayishi,** O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalari, qo‘shma loyihalar, san‘at festivallari, madaniyat kunlari, xalqaro grantlar va ko‘rgazmalar ortib bormoqda Bu esa global tajribalarni o‘zlashtirish, ilg‘or menejment yondashuvlarini milliy amaliyotga tadbiq etish imkonini beradi

✓ **raqamli texnologiyalar va media platformalarning jadal rivoji esa,** bugungi kunda san‘at asarlarini targ‘ib qilish, auditoriyani jalb qilish va moliyaviy

³ Yusupaliyeva D. Q. "The importance of planning, organization and management of creative institutions." International Journal of Artificial Intelligence 1.1 (2024): 776-782.





barqarorlikka erishishda raqamli vositalar (ijtimoiy tarmoqlar, striming platformalar, mobil ilovalar) muhim rol o'ynamoqda Bularning barchasi san'at menejmentining yangi yo'nalishlarini – raqamli menejment, kontent marketingi, san'atda brending va boshqalarni shakllantirmoqda

✓ **bozor iqtisodiyoti tamoyillarining san'atga tatbiq etilishi esa, Yangi O'zbekiston sharoitida san'at sohasi ham iqtisodiy mexanizmlar orqali faoliyat yuritishni boshladi San'at mahsulotining monetizatsiyasi, investitsion jozibadorlik, homiylik tizimi, grantlar, san'at brendlari yaratish kabi jarayonlar san'at menejmentining zamonaviy shakllarini talab qilmoqda⁴**

Bunday jarayonlar san'at menejerining rolini tubdan o'zgartirmoqda Endilikda u faqatgina tashkilotchi yoki rejalashtiruvchi emas, balki ijodiy g'oyalarni amalga oshiruvchi, moliyaviy manbalarni jalb qiluvchi, brend yaratuvchi, auditoriyani shakllantiruvchi, madaniy kommunikatsiyalarni boshqaruvchi ko'p funksiyali mutaxassisga aylangan Shu boisdan ham O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida san'at menejmenti bo'yicha maxsus mutaxassisliklar ochilmoqda, kasbiy malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda, xalqaro tajriba o'rganilmoqda

Xususan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham olib borilayotgan islohatlardan biri shuki institutda tayyorlanayotgan kasb egalariga yangi bugungi kun talabi bo'yicha madaniyat va san'at sohasi menejerlarini tayyorlash yuklatilgan Bunga binobarin Menejment: "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti", Menejment "Ommaviy tadbirlar menejmenti, "San'at sohasi prodyuserlik" ta'lim yo'nalishlari tayyorlovi yo'lga qo'yildi Bu bilan madaniyat va san'at sohasini boshqarishning zamonaviy kasb egalari yetishib chiqishiga va bu soha kasb egalarini tayyorlash uzluksizligi va doimiyligi ta'limning alohida soha sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi⁵

Shu bilan birga, zamonaviy san'at menejmentida muayyan muammolar ham mavjud: sohadagi mutaxassislarning yetishmasligi, menejment faoliyatining to'laqonli tizimlashtirilmaganligi, bozor mexanizmlarining san'at bilan hali to'liq integratsiyalanmaganligi, san'at va madaniyat mahsulotlarining monetizatsiyasi masalalari, auditoriya bilan ishlashdagi innovatsion yondashuvlarning kamligi va boshqalar Ushbu muammolarni tahlil qilish, ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish, milliy san'at menejmenti modelini shakllantirish – hozirgi davrda katta ilmiy va amaliy

⁴ Fayziyev, T., U. Zunnunova, and S. Zakirova. "Academic and organizational aspects of entrepreneurship education in art universities of Uzbekistan." *Journal of critical reviews* 7 (2020): 19.

⁵ Tojiyev Javlonbek Rustamovich. "Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'at menejmentining o'rni." *Oriental Art and Culture* 4.1 (2023): 575-579.





ahamiyatga ega Yangi O‘zbekiston sharoitida san‘at menejmenti sohasida yuzaga kelayotgan zamonaviy tendensiyalarni aniqlash, ularning asosiy yo‘nalishlari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etishga doir takliflar ishlab chiqishdan iborat

Bugungi kunda san‘at menejmentining zamonaviy tendensiyalari, avvalo, globalizatsiya, raqamlashtirish, kreativ industriyalar bilan integratsiya, ijtimoiy mas‘uliyat va madaniy turizm kabi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir

San‘at menejmentining eng kuchli va tez rivojlanayotgan tendensiyalaridan biri raqamli texnologiyalarni san‘at bilan integratsiya qilishdir Bu jarayon san‘atni yaratish va iste‘mol qilish shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda Raqamli san‘at, onlayn galereyalar, virtual turar-joylar, san‘at asarlarini onlayn platformalarda namoyish etish va onlayn savdo orqali san‘at bozori yangi bir darajaga ko‘tarilmoqda San‘at asarlarini raqamli formatda yaratish, xususan, digital art, VR (virtual reality), AR (augmented reality), va 3D texnologiyalari orqali ishlab chiqarish san‘atni yanada interaktiv va keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi⁶ Bunday yondashuv san‘atni global miqyosda osonroq tarqatish, sotish va ko‘rsatilishini ta‘minlaydi Bundan tashqari, san‘atning raqamli platformalar orqali ommalashuvi, badiiy mahsulotlar va xizmatlarni reklama qilishning yangi usullarini yaratadi San‘atni raqamlashtirish, o‘z navbatida, yosh avlodni san‘atga jalb etishda ham samarali vosita sifatida ishlatiladi

San‘at menejmenti sohasidagi yana bir zamonaviy tendensiya – bu kreativ industriyalar va madaniyatning iqtisodiy jihatlarini rivojlantirishdir Kreativ industriyalar so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylangan Madaniy sanoat, shu jumladan san‘at, musiqa, kino, dizayn, moda va boshqa ijodiy sohalar iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda⁷ San‘at menejmenti, bunday holatda, faqat ijodiy jarayonlarni boshqarish emas, balki madaniy mahsulotlarni tijoratlashtirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish, madaniy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishni ham o‘z ichiga oladi Madaniy sanoatning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun turli marketing, PR va brend yaratish faoliyatlari amalga oshiriladi Bularning barchasi san‘at menejerlarining faoliyatini yanada murakkablashtiradi, ammo shu bilan birga san‘atni yanada kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini beradi

⁶ Fayziyev To‘rabek. “Culture public relations and advertising.” Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.10 (2024): 327-330.

⁷ Yusupaliyeva Dilafuz Qahramonovna. “Madaniyat va san‘at sohasi menejerlarini tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari.” Oriental Art and Culture 5.6 (2024): 611-615.





San'at menejmentining yana bir zamonaviy tendensiyasi – bu madaniy turizmning rivojlanishi Madaniy turizm, san'at asarlarini va tarixiy yodgorliklarni ko'rish, madaniy tadbirlarda qatnashish uchun turistik sayohatlar tashkil etishni o'z ichiga oladi San'atni targ'ib qilishning yangi usullari sifatida madaniy turizm keng tarqalmoqda Bu jarayon san'at va madaniyat muassasalariga iqtisodiy foyda keltirish, shuningdek, sayyohlar uchun yangi turistik yo'nalishlar yaratish imkoniyatini beradi O'zbekiston kabi madaniy boyliklarga boy davlatlar uchun bu tendensiya juda muhimdir, chunki u nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki xalqaro maydonda mamlakatning imidjini oshiradi

Zamonaviy san'at menejmenti tendensiyalaridan biri – san'at va madaniyatning ijtimoiy mas'uliyatga bo'lgan yondashuvi Ijodkorlar va san'at muassasalari ijtimoiy mas'uliyatni o'z faoliyatining bir qismi sifatida ko'rib chiqishmoqda San'at ijtimoiy muammolarni, adolatsizliklarni va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni ko'rsatish, jamiyatda ezgulik, yaxshi niyat va g'amxo'rlik kabi qadriyatlarni targ'ib qilishga yordam beradi Bu, o'z navbatida, san'atning jamiyatga bo'lgan ta'sirini yanada kuchaytiradi ⁸ San'atning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish, shuningdek, san'at muassasalari va menejerlari uchun yangi va kengroq auditoriyalarni jalb qilishni anglatadi Ijodiy va ijtimoiy loyihalar, ko'pincha, inson huquqlari, tenglik, atrof-muhitni himoya qilish kabi mavzularga qaratilgan bo'ladi Bunday loyihalar jamiyatning o'zgarishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi

San'at menejmentining yangi tendensiyalaridan yana biri bu, innovatsion boshqaruv metodlarining joriy etilishi San'at menejmenti sohasidagi menejerlar, kreativ yondashuvlar, analitik fikrlash va strategik rejalashtirish kabi ilg'or boshqaruv metodlarini qo'llashga harakat qilmoqda Yangi boshqaruv uslublari, jamoa tuzish va loyiha boshqaruvi kabi yondashuvlar san'at muassasalarini yanada samarali va samarali ishlashini ta'minlaydi San'at menejmentida strategik rejalashtirish, marketing, brend yaratish, moliyaviy boshqaruv kabi aniq uslublar va metodlar qo'llanilmoqda Boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari san'at muassasalarini global miqyosda raqobatbardosh va samarali qilishga imkon beradi

San'at menejmenti sohasidagi zamonaviy tendensiyalar san'atning yaratishdan tortib uning tarqatilishigacha bo'lgan barcha jarayonlarini zamonaviy va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirmoqda Raqamlashtirish, kreativ industriyalar bilan integratsiya, madaniy turizm, ijtimoiy mas'uliyat va xalqaro hamkorlik kabi omillar

⁸ Dewey Patricia. "From arts management to cultural administration." International Journal of Arts Management 6 (2004): 13-23.





san'atni boshqarishning yangi paradigmalari shakllantiradi Bu jarayonlar nafaqat san'atni iqtisodiy jihatdan rivojlantiradi, balki uning jamiyatdagi ahamiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupova, R K "Madaniyat va san'at sohasida innovatsion jarayonlarning tutgan o'rni" *Inter education & global study* 5 (2024): 315-322
2. Fayziyev T R "Madaniy sohada menejmentning xususiyatlari" *Перекрёсток культуры* 2023/4/18 5
3. Yusupaliyeva D Q "The importance of planning, organization and management of creative institutions" *International Journal of Artificial Intelligence* 11 (2024): 776-782
4. Fayziyev, T, U Zunnunova, and S Zakirova "Academic and organizational aspects of entrepreneurship education in art universities of Uzbekistan" *Journal of critical reviews* 7 (2020): 19
5. Tojiyev Javlonbek Rustamovich "Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'at menejmentining o'rni" *Oriental Art and Culture* 41 (2023): 575-579
6. Fayziyev To'rabek "Culture publik rileyshnz-pr (public relations) and advertising" *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 410 (2024): 327-330
7. Yusupaliyeva Dilafruz Qahramonovna "Madaniyat va san'at sohasi menejerlarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari" *Oriental Art and Culture* 56 (2024): 611-615
8. Dewey Patricia "From arts management to cultural administration" *International Journal of Arts Management* 6 (2004): 13-23
9. Todjidinov Umid Todjidinovich "Madaniyat va san'at menejmenti va uning zamonaviy ko'rinishlari" *Oriental Art and Culture* 41 (2023): 307-315
10. Komilova, Mushtariybegim "San'at va madaniyat menejmenti (boshqaruv san'ati) haqida ilmiy yondoshuvlar va uning zamonaviy klassifikatsiyasi" *Oriental Art and Culture* 7 (2021): 91-106

